XALQ DEPUTATLARI BALIQCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-2-017-1-18-K/24 Baliqchi tumani

Baliqchi tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Andijon Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04-15-/1908-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Baliqchi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Baliqchi tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **138 634,4 mln. so‘m** va xarajatlari esa **138 634,4 mln. so‘m** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Baliqchi tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **641.0 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Baliqchi tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 879,3 mln. so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar 4-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Nurmatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Muhammadjonov), tuman G‘aznachilik hizmati bo‘limi (D.Kasimov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Xalimov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida, sifatli va samarali ijro etilishini ta’minlasinlar.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Nurmatov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Muhammadjonov) 2025-yil mahalliy byudjetining ijrosi bo‘yicha har chorakda xalq deputatlari Baliqchi tuman Kengashiga hisobot berib borsin.

9. Baliqchi tumani Kengashining deputatlari tuman mahalliy byudjetining ijro etilishi bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazib natijasi yuzasidan tuman Kengashida muhokamalar o‘tkazib borsinlar.

10. Mazkur qaror tuman hokimligining matbuot hizmati (M.Karimov), tuman “G‘alaba” gazetasi (Sh.Karimova) hamda tegishli tahririyatlar ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qaror bajarilishi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

12. Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi” (O.Sheraliev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDURAYIMOV
JASURBEK ODILOVICH

Xalq deputatlari Baliqchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-017-1-18-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Baliqchi tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Aylanmadan olinadigan soliq	8 821 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	72 748 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 448 000
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*7 840 440*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 494 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 758 000
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 891 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 835 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	221 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 365 000
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	213 000
	JAMI	**138 634 440**
	Hamma daromadlar	**138 634 440**

Xalq deputatlari Baliqchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-017-1-18-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Baliqchi tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**138 634 440**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*40 771 154*
	shundan	
	"Mening maktabim"	*3 490 846*
2	Madaniyat bo‘limi	*4 586 250*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*7 286 052*
4	Sport bo‘limi	*6 886 009*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 592 223*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 371 927*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 847 299*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 340 619*
9	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
10	Hokimiyat	*48 176 722*
	"Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasi	*31 965 250*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 749 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 879 325*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 048 162*
	shundan	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*159 795*
	Axborot-kutubxona markazlari	*888 367*
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	21 728 023
13	Boshqa tashkilotlar	

Xalq deputatlari Baliqchi tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-017-1-18-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

foizda

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Foyda solig‘i	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) uchun aksiz solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari*	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Baliqchi tuman	100%	100%	0%	0%	36%	100%	100%	100%	100%

foizda

№	Hududlar nomi	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Aylanmadan soliq	Davlat mulkini soti shdan olingan daromadlar	Er uchastka-lariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat boji **	Jarima**	Yig‘imlar**	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 doromad kodlari bo‘yicha) tushumlar

1	Baliqchi tuman	0%	100%	50%	50%	0%	0%	0%	100%	100%

*Izoh: * Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno*
*** Qonunchilik hujjatlarida belgilangan ayrim davlat boji (3422103 daromad kodi bo‘yicha), jarimalar (3430103 daromad kodi bo‘yicha) va yig‘imlar (3422203 daromad kodi bo‘yicha)ning ayrim turlari tuman (shahar) mahalliy byudjetlariga ajratma qilinishi mumkin*

Xalq deputatlari Baliqchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-017-1-18-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun Baliqchi tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Baliqchi tuman Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

№	MFYlar nomi	Koeffisent miqdori	1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)*
1	Navnixol MFY	0,70	27 104 000
2	Islomobod MFY	1,10	42 592 000
3	Yurtobod MFY	0,70	27 104 000
4	Yuzchinor MFY	0,70	27 104 000
5	Eshonchek MFY	0,70	27 104 000
6	Eski markaz MFY	1,10	42 592 000
7	Sho‘r MFY	0,90	34 848 000
8	Sherobod MFY	0,90	34 848 000
9	Charog‘on MFY	0,70	27 104 000
10	Xalfachek MFY	0,70	27 104 000
11	Farovon MFY	1,00	38 720 000
12	Fayziobod MFY	0,70	27 104 000
13	O‘rta qo‘rg‘on MFY	1,00	38 720 000
14	To‘da MFY	0,90	34 848 000
15	Turkiston MFY	0,90	34 848 000
16	Tumor MFY	0,90	34 848 000
17	Tulkiobod MFY	0,70	27 104 000
18	Tovuldi MFY	0,70	27 104 000
19	Sortepa MFY	0,90	34 848 000
20	Sirmoq MFY	0,70	27 104 000
21	Siza MFY	0,70	27 104 000
22	Serquyosh MFY	0,90	34 848 000
23	Sahovat MFY	0,70	27 104 000
24	Sarnavul MFY	0,90	34 848 000
25	Polvonko‘l MFY	0,70	27 104 000
26	Omonarik MFY	1,10	42 592 000
27	Oqtepa MFY	0,70	27 104 000
28	Oqqo‘rg‘on MFY	1,10	42 592 000
29	Nurafshon MFY	1,10	42 592 000

30	Nasridinobod MFY	0,70	27 104 000
31	Yakkatol MFY	1,00	38 720 000
32	Yangixayot MFY	0,70	27 104 000
33	Muqanna MFY	0,70	27 104 000
34	Matonat MFY	0,70	27 104 000
35	Adolat MFY	0,70	27 104 000
36	Olchazor MFY	0,70	27 104 000
37	Aralxon MFY	0,70	27 104 000
38	Afsona MFY	0,70	27 104 000
39	A′lam MFY	0,70	27 104 000
40	Barkamol MFY	0,90	34 848 000
41	Botir MFY	0,90	34 848 000
42	Guzar MFY	0,90	34 848 000
43	Gulshan MFY	0,70	27 104 000
44	Go‘ravon MFY	1,00	38 720 000
45	Daryo buyi MFY	0,90	34 848 000
46	Dogiston MFY	0,70	27 104 000
47	Do‘ngsaroy MFY	0,70	27 104 000
48	Do‘stlik MFY	0,70	27 104 000
49	O'rmonbek MFY	0,70	27 104 000
50	Jartepa MFY	0,70	27 104 000
51	Zaxkash MFY	1,00	38 720 000
52	Zulfiqor MFY	0,70	27 104 000
53	Ilg‘or MFY	0,70	27 104 000
54	Istiklol MFY	0,70	27 104 000
55	Iftixor MFY	1,10	42 592 000
56	Kattabuloq MFY	1,10	42 592 000
57	Qaxramon MFY	0,90	34 848 000
58	Qiyali MFY	0,90	34 848 000
59	Qumtepa MFY	0,90	34 848 000
60	Ko‘l bo‘yi MFY	0,90	34 848 000
61	Ko‘l MFY	1,10	42 592 000
62	Qo‘rg‘oncha MFY	0,70	27 104 000
63	Mallachek MFY	0,70	27 104 000
64	Markaz MFY	1,10	42 592 000
65	Jasorat MFY	0,90	34 848 000
66	O‘lmas MFY	0,70	27 104 000

**O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori bilan Baliqchi tumanida yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘ining bazaviy stavkasi 1 gektar uchun 38720,0 ming.(o‘ttiz sakkiz million yetti yuz yigirma ming) so‘m miqdorida belgilangan. Qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffisiyentga ko‘paytirish orqali aniqlanadi*

Xalq deputatlari Baliqchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-017-1-18-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun Baliqchi tumani bo‘yicha jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Baliqchi tuman Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

№	MFYlar nomi	Koeffisent miqdori	1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda)*
1	Navnixol MFY	0,70	242,5
2	Islomobod MFY	1,10	381,0
3	Yurtobod MFY	0,70	242,5
4	Yuzchinor MFY	0,70	242,5
5	Eshonchek MFY	0,70	242,5
6	Eski markaz MFY	1,10	381,0
7	Sho‘r MFY	0,90	311,8
8	Sherobod MFY	0,90	311,8
9	Charog‘on MFY	0,70	242,5
10	Xalfachek MFY	0,70	242,5
11	Farovon MFY	1,00	346,4
12	Fayziobod MFY	0,70	242,5
13	O‘rta qo‘rg‘on MFY	1,00	346,4
14	To‘da MFY	0,90	311,8
15	Turkiston MFY	0,90	311,8
16	Tumor MFY	0,90	311,8
17	Tulkiobod MFY	0,70	242,5
18	Tovuldi MFY	0,70	242,5
19	Sortepa MFY	0,90	311,8
20	Sirmoq MFY	0,70	242,5
21	Siza MFY	0,70	242,5
22	Serquyosh MFY	0,90	311,8
23	Saxovat MFY	0,70	242,5
24	Sarnavul MFY	0,90	311,8
25	Polvonko‘l MFY	0,70	242,5
26	Omonariq MFY	1,10	381,0

27	Oq tepa MFY	0,70	242,5
28	Oq qoʻrgʻon MFY	1,10	381,0
29	Nurafshon MFY	1,10	381,0
30	Nasriddinobod MFY	0,70	242,5
31	Yakkatol MFY	1,00	346,4
32	Yangi xayot MFY	0,70	242,5
33	Muqanna MFY	0,70	242,5
34	Matonat MFY	0,70	242,5
35	Adolat MFY	0,70	242,5
36	Alchazor MFY	0,70	242,5
37	Arolxon MFY	0,70	242,5
38	Afsona MFY	0,70	242,5
39	A’lam MFY	0,70	242,5
40	Barkamol MFY	0,90	311,8
41	Botir MFY	0,90	311,8
42	Guzar MFY	0,90	311,8
43	Gulshan MFY	0,70	242,5
44	Goʻravon MFY	1,00	346,4
45	Daryo buyi MFY	0,90	311,8
46	Dogiston MFY	0,70	242,5
47	Doʻngsaroy MFY	0,70	242,5
48	Doʻstlik MFY	0,70	242,5
49	O'rmonbek MFY	0,70	242,5
50	Jartepa MFY	0,70	242,5
51	Zaxkash MFY	1,00	346,4
52	Zulfiqor MFY	0,70	242,5
53	Ilgʻor MFY	0,70	242,5
54	Istiklol MFY	0,70	242,5
55	Iftixor MFY	1,10	381,0
56	Kattabuloq MFY	1,10	381,0
57	Qaxramon MFY	0,90	311,8
58	Qiyali MFY	0,90	311,8
59	Qumtepa MFY	0,90	311,8
60	Koʻl boʻyi MFY	0,90	311,8
61	Koʻl MFY	1,10	381,0
62	Qoʻrgʻoncha MFY	0,70	242,5
63	Mallachek MFY	0,70	242,5
64	Markaz MFY	1,10	381,0

65	Jasorat MFY	0,90	311,8
66	Oʻlmas MFY	0,70	242,5

**Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-3-046-1-0-K/24-sonli qarori bilan Baliqchi tumanida yuridik (jismoniy) jismoniy shaxslar uchun qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar boʻyicha yer soligʻining bazaviy stavkasi 1 kv.m uchun 346,4. soʻm (uch yuz qirq olti soʻm 40 tiyin) miqdori belgilangan. Qoʻllanilishi lozim boʻlgan soliq summasi bazaviy stavkani koeffisiyentga koʻpaytirish orqali aniqlanadi.*